

BOSH KELISHIK

Asilbekova Aqmaral Safarovna

Toshkent viloyati Piskent tumani 41-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 4-sinf o'quvchilariga ona tili darslarida "Bosh kelishik" mavzusini interfaol usul hamda o'yinlar orqali o'qitish uslubi, kelishik qo'shimchalari, uning nomlari, so'roqlari va vazifasi yuzasidan bilim, ko'nikma hosil qilish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bosh kelishik, og'zaki va yozma, mashqlar, mustaqil topshiriq, ona tili.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: bosh kelishik va uning so'roqlari, qo'shimchasi haqida tushuntirish, otlarning gapda boshqa so'zlar bilan kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi, kelishik qo'shimchalari, uning nomlari, so'roqlari va vazifasi yuzasidan bilim, ko'nikma hosil qilish;

FK1: otning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini bilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda mehnatga havas uyg'otish, kitobning inson uchun foydali tomonlarini yoritib berish;

TK3: rasmi kitoblar, jurnal va gazetalarni mustaqil o'qib -o'rganish orqali bilimni muntazam oshirib borish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni lug'atini boyitish, savodxonligini oshirish;

FK2: mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish;

TK2; media vositalardan, didaktik materiallardan foydalanib, topshiriqlarni bajarish.

Darsning turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat metod, savol-javob, “O‘rgimchak to‘ri” metodi, o‘yinlar.

Darsning jihozi: “otlarning kelishiklar bilan qo‘llanishi” jadvali, kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar.



Dars shiori

A'lochimiz o'qishda,
Bilimdonimiz har ishda.
Ne buyursang Vatanim,
Bizlar tayyormiz doim.



Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, o‘quvchilar diqqatini jalb etish.

Darsning rejasi:

t/r	Darsning borishi	vaqt
	Tashkiliy qism	7 daqiqa
	O‘tilgan mavzuni mustahkamlash va uyga vazifani so‘rash.	10 daqiqa
	Yangi mavzu bayoni	12 daqiqa
	Dam olish daqiqasi.	3 daqiqa
	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
	Xulosa va baholash	3 daqiqa

II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash va uyga vazifani so‘rash. O‘tilgan mavzu **“Aql charxi” usuli** orqali mustahkamlanadi.

- 1.Kelishik qo‘shimchalari qaysi qo‘shimchalardan so‘ng qo‘shiladi?
2. Turkiy til o‘lkasiga qaysilar kiradi?
- 3.Kelishik qo‘shimchalari qaysi so‘z turkumiga bog‘lanadi?
- 4.O‘zbek tilida nechta kelishik bor?

Uyga vazifa 3-mashq o‘qitilib, topilgan sarlavhalar so‘raladi hamda muhokama qilinadi.

III.Yangi mavzu bayoni:

O‘zbek tilida 6 ta kelishik bor. Birinchisi bosh kelishik bo‘lib, u hech qanday qo‘shimcha olmaydi. Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

KELISHIKLAR			
BOSH KELISHIK	Kim? Nima?	-	o`quvchi, kitob
QARATQICH KELISHIGI	Kimning? Nimaning?	-ning	o`quvchining kitobning
TUSHUM KELISHIGI	Kimni? Nimani?	-ni	o`quvchini kitobni
JO`NALISH KELISHIGI	Kimga? Nimaga? Qayerga?	-ga, -ka, -qa	o`quvchiga kitobga
O`RIN-PAYT KELISHIGI	Kimda? Nimada? Qayerda?	-da	o`quvchida kitobda
CHIQUISH KELISHIGI	Kimdan? Nimadan? Qayerdan?	-dan	o`quvchidan sinfdan

1- mashq. O`qing. Matn necha qismdan iboratligini aniqlang. Har bir qismga sarlavha toping. Ushbu mashq og`zaki bajariladi va **“O`rgimchak to`ri”** usuli orqali bajariladi.

Buyuk bo`yoqchi qirg`ta qozonda bo`yoqlarini pishirar ekan. Bo`yoqlarga xaridor bo`lib Bahoroy kelibdi. U o`ziga yashil bo`yoqni tanlabdi. Shu payt kunchiqar tomondan Yoz yetib kelibdi. Bo`yoqchi Yozga har xil bo`yoqlardan beribdi. So`ng bo`yoq bozoriga Kuz kelibdi. Kuz sariq, zarg`aldoq ranglardan olibdi. Hammadan keyin Qish kelibdi. Bu paytda qozonda faqat oq rang qolgan ekan. Qish boshqa fasllardan xafa bo`libdi. Shuning uchun odamlar Qish o`ksimasin deb Yangi yilda archaning shoxlariga turli rangdagi o`yinchoqlarni osib qo`yar ekanlar.

(Olloyor Begaliyevdan)

O`qituvchi bu mashqni **“O`rgimchak to`ri”** metodi orqali o`tkazadi. O`qituvchi ipning bir uchini ushlab kim? So`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni aytishni sinfdagi xohlagan bitta o`quvchiga beradi. U o`quvchi ham kim?

so'rog'iga javob bo'ladigan so'z aytib, keying o'quvchiga beradi. O'yin ip tugaguncha davom etadi. Ip tugagandan so'ng o'quvchilar nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z aytib ipni orqaga qaytaradi. Bu o'yinda o'quvchilar bir- birining so'zini qaytarmasligi kerak.

Bosh kelishikdagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Bosh kelishikdagi ot gapda qaysi bo'lak vazifasida kelgan? Shu otga bog'lanib kelgan so'z-chi? Gapda bosh kelishikdagi otni qanday aniqlaysiz?

IV. Dam olish daqiqasi.



“Topgan topaloq” o’yini.

Bola kelar, bola kelar,
Ilk mehr ola kelar,
Silab-siylob daraxtlarga,
Guldan marjon taqa kelar. (Bahor)

Qishda oq gul,
Bahorda suv sochadi.
Yel esganda,
Tumtaraqay qochadi. (Bulut)

Osmon chirog’i
Yondi-yu o’chdi. (Chaqmoq)

Chirmandasi osmonda,
Raqs yerda, har yonda. (Momaqaldiroq, yomg’ir)

Beqasamdan yo’li bor,
Osmon-falakda chiqar. (Kamalak)

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

2- mashq. Chiziqalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini bosh kelishikda qo'llab o'qing va yozing. **“Mening o'rnim qayerda” usuli** orqali ushbu

Ilgari suvsiz qaqrab yotgan yerlarga _____ chiqarildi. Qaqroq _____ obod bo'ldi. Bu yerlarga _____ o'tqazildi. _____ ekildi, _____ qurildi. Qurilgan uylarga _____ ko'chib kirishdi.

Qo'yish uchun so'zlar: odamlarni, ekinlarga, yerlardan, daraxtlarda, uylarga, suvning.

Bosh kelishikdagi otning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing. Bosh kelishikdagi ot qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘llangan?

“Darvoza” ta’limiy o‘yini o‘ynatiladi. Bu o‘yinda 2 nafar o‘quvchi qo‘llarini birlashtirib, darvoza shaklida turadi. Ularning orasida o‘quvchilar uchun tayyorlangan meva va sabzavotlarga tegishli rasmi yoki o‘yinchoq bo‘ladi.(Masalan: anor, uzum, olma, shaftoli, nok, baqlajon, sabzi).

O‘qituvchi tomonidan o‘yin ishtirokchilariga tarqatmalar berildi.

So‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrata bilish, so‘rog‘ini to‘g‘ri qo‘yish, unga egalik qo‘shimchalarini qo‘yib aytish topshirig‘i beriladi.

Ularga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi darvozadan o‘tib, xohlagan meva yoki sabzavotni oladi va u qanday maza –tamgaega ekanini ham aytib o‘tadi.

VI. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida umumiy baholar e‘lon qilinadi va faol, bilimdon o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VII.Uyga vazifa.3- mashq.Tez aytishni o‘qing va mashq qiling.

Sabiha, Sohiba, Zabiha,

Sahifani sinchiklab o‘qidi.

Mavluda hovlida

Singlisi Mavjuda qo‘lida.

Bosh kelishikdagi otlarni aniqlang, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan yozing.